

ALISHER NAVOIYNING MA'NAVIY MEROSI EZGU INSONIY FAZILATLAR TIMSOLI.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq yo'nalishi talabasi

Farmonova Ruxshona Xayotjon qizi

Ilmiy rahbar

Xudjaqulova Feruza Raxmatovna

Navoiy davlat universiteti

dots. v.b., f.f.f.d. (PhD)

Navoiy “Xamsa”sida qayd etilgan mavzular ko'lami nihoyatda keng. Hayot hodisotlari, inson turmushi, ichki kechinmalari bilan bog'liq barcha jihatlar qalamga olingan. Shoir o'quvchi e'tiborini eng muhim tushunchalarga qaratadi. Ularning har biriga alohida urg'u beradi: ko'ngil, iymon, saxovat, adab, qanoat, vafo, ishq, rostlik, ilm kabilar teran sharhlanadi. Asarda inson, insoniylik belgilari, “odamiylar odamiysi”, ya'ni bugunning tili bilan aytganda, komil shaxs haqida ko'pgina fikrlar uchraydi. Navoiy insonni ulug'lash bilan birga uning ko'ngli muqaddas ekanligini takror va takror ta'kidlaydi. Ayni paytda har bir kishi ezgu nom qoldirishi, umrini yaxshiliklar qilish bilan bezashi muhumligini o'qtiradi. Shoir olamdagi barcha narsalarning yaratilishidan maqsad inson ekanligini bir o'rinda “Lek boridin g'araz inson edi” deya ta'kidlasa, boshqa bir baytda:

Bu chaman o'lmog'ida mavjud anga,

Bor edi inson guli maqsud anga, deya ta'kidlaydi.

Navoiyning fikricha, dunyodagi hamma nafosat olami insonlarga xizmat qilishga qaratilgan bo'lib, bu nafosatning butun nozik qirralari va jabhalari xudoning jamolida aks etgan. Alisher Navoiy insonning qadr- qimmatini uning mol-mulki, zeb-ziynati, mansabi, ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyosasi, axloqiy sifatleri, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanadi deydi. Kishilarga mehr –muruvvat

ko'rsatishga, solih amallarni bajarishga, nafsni tiyishga, kambag'allarga xayr-ehson qilishga, rahmdil va shavqatli bo'lishga, doim xalq g'amini yeyishga, ular tashvishida yashashga insonlarni da'vat qiladi, insoniylik va odamiylikni har narsadan yuqori qo'ydi.

Odamiy ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

“Yaxshiliklarni topmoq –edirmoqdir va ayblarni yopmoq kiydirmoqdir. O'rinli berilgan eski chopon va qora to'n- saxiylik va o'rinsiz berilgan zardan to'qilgan sarpoyamaslik. Ovqating bekor ketmasin desang – yedir, kiyiming eskirmasin desang- kiydir. Sahiylik yo'lini yuqorida aytilgancha angla, ammo yaxshilik ravishi va hojat chiqarish rasmlarini boshqacha angla,” – deya ta'kidlaydi.

Aynan, Navoiyning hayot tajribasi, ilm darajasi aks etgan asarlarida yuqorida keltirilgan azaliy savollarga javob berishda muhim manbadir. Navoiy kabi komil insonga nokomil jamiyatda yashash mashaqqatlarini “Mahbub ul-qulub” asaridagi quydagi dil so'zlari yaqqol ko'rsatib beradi: “Birovga bir piyola may tutgudek bo'lsang, u senga qadah-qadah qon yutqazadi, bir qadah bolingni ichgan odamdan kosa-kosa zahar yutushga tayyor turmoq kerak”. Bu dil faryod komillikka erishishni maqsad qilgan inson bu yo'ldagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda komil bo'lib yashash mashaqqatlariga ham tayyor turishi kerakligini anglatadi. Bu holatning sababini “yo zamon aylanishi, o'zgarishining nuqsonlari, yoki davr va zamon ahlidagi aql va insoniylikka yetishgan futur tufayli... ..yaxshilikka mukofat- qo'pollik, odob bilan hushmuomala evaziga kekkayish, takabburlig'dan o'zgacha munosabat ko'rmasiz” – deb yozadi. Shoirning bu so'zlari faqat usha davr va zamon ahliga nisbatan to'g'ri bo'libgina qolmay, balki keyingi davrlar uchun ham haq fikrdir. Shu o'rinda bir holat ko'zga tashlanadi, u ham bo'lsa, har bir davr kishilari o'zlaridan avvalgi davr odamlarini insofliroq, insoniyoq deb biladilar. Bunga sabab shuki inson va insoniyat xotirasi yaxshilikni, yaxshi insonlarni ko'proq yodda saqlaydi, yomonlikni unitishga harakat qiladi. “Mahbub ul-qulub” asarining 8- tanbehini o'qigan har bir inson (u zolim yoki mazlum bo'lishidan qat'i nazar) uni o'z dil so'zlari sifatida qabul qiladi: “Har qanday xizmatkorlik qilib, uning evaziga javr- jaqo ko'rganing holidan, sendan

yana xizmat ko'tadilar. Har qancha vafodorlik ko'rsatib, ko'z oldida ranj-mashaqqat tortsang, yana qulluq tama qiladilar. Har vafo evaziga yuz jafo chekmasang, gunohkorsan va har mehr- muhabbatingga ming dardu alam ko'rmasang, xonavayronsan". Bundan ko'rinadiki, zolimlik va mazlumlik nisbiy holat bo'lib, zolim kimgadir nisbatan mazlum, mazlum esa zolim bo'lishi mumkin. Navoiy hech bir asarida boy, amaldor, hukmdorlar (yuqori tabaqa vakillari) mazlum deb hisoblamagan. U joxil, xudbin, nafsga berilgan odamlarni zolim deb biladi. Bunday odamlar barcha tabaqa vakillari, kab-hunar egalari orasida uchraydi, ular faqat boshqalarga emas, balki o'zlariga ham zulm qiladilar deb ta'kidlaydi.

Inson tabiati shundayki, hech bir zolim o'zini zulm qilguvchi deb bilmaydi, o'z ishini adolatli deb tushunadi. Unda zolim va mazlumni, haq va nohaqni qanday ajratish mumkin degan savol to'g'rilishi tabiiy xol. U kishining quyidagi fikrlari yuqoridagi savolning javobidir:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdir?

Eshitib ayla shubha raf' andin.

Yaxshiroq bml uni ulus arokim,

Utsa ko'proq ulusga naf andin.

Shoir o'z hayoti davomida "odamlarga ko'proq foydasi tegadigan kishi odamlarning eng yaxshisidir" degan hadisi sharifga amal qilib yashadi. Hamma odamlarga birdek yaxshi bo'lish mumkin emas. Shu bois u elga foydasi ko'proq tegadigan odamlarga (boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'i nazar) yaxshilik qilishga intildi. Hazrat Navoiy inson qaysi davrda, qanday zamon ahli orasida yashamasin, doimo ezgulik, yaxshilikni diliga jo qilib, yashashi kerak degan xulosaga keladi. Shoirning bu xulosasi barcha asarlarining yetakchi g'oyasi hisoblanadi. Bu g'oya "Mahbub ul-qulub" asarining uchunchi qismida ham turli foydali maslahatlar va maqollar ko'rinishida bayon qilingan.

Navoiy eng qadrlagan insoniy tuyg'ulardan biri mehr tuyg'usidir. Mehr ruhiyatga xos bo'lgan tuyg'ulardan biri bo'lib, e'tiborlilik va g'amxo'rlik bu tuyg'uni boshqa

boshqalaridan ajratib turadigan muhim belgilardir. Mehr insonga xos bo'lgan eng beg'araz tuyg'u bo'lib, g'araz bilan yoki o'z manfaatini ko'zlab ko'rsatilgan e'tibor, g'amxo'rlik mehr hisoblanmaydi.

Muruvvat, sahovat, oliyjanoblik(yaxshilik ko'rsatish) sahiylik, himmat, karam kabi mehrga yondosh tushunchalar mavjud bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. Muruvvat kattaning –kichikka, xokimning tobega, kuchlining kuchsizga, boyning kambag'alga rahmdillik bilan munosabatda bo'lishidir. Mehrli inson muruvvatli bo'ladi.

Saxovat-zarur bo'lgan vaqtda moddiy yordam bera olish xislatidir. A.Navoiy bu haqda shunday yozadi: “Zarur vaqtda berilgan eski chopon va bo'z to'n-sahovat, bemahal hadya qilinganzarbafig chopon yaramaslikdir. Sahovat qilish yo'lini shu aytilgan gaplardan angla”. Sahovatli inson yordam so'rab murojat qilishlarini kutmasdan muhtoj bo'lgan odamlarga qo'lidan kelgancha yordam beradi.

Sahiylik doimiy, beg'araz moddiy yordam ko'rsatish xislatidir. Xazrat Navoiy: “Sahiy bulutdir, hirmon-hirmon don xosili, balki xazina beradi; baxil chumolidir, don-dun mashoq teradi” – deb yozadi. Isrof qilish sahiylik hisoblanmaydi. Shuningdek maqtanish uchun, ko'z-ko'z qilib, xalqqa ko'rsatib “sahiylik” qilish – behayollikdir.

Himmat tushunchasi sahiylik tushunchasi bilan yondosh bo'lib, beg'araz ko'rsatilgan moddiy yordamni ifodalaydi. Lekin bu tuyg'u sahiylik kabi doimiy bo'lmaydi. “Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir; ammo sahiylikning darajasi bir necha barobar yuksakdir”. Chunki sahiy hamma vaqt himmatlidir, himmatli esa, hamma vaqt ham sahiy bo'la olmaydi. Himmati inson hech qachon tubanlik qilmaydi. Himmatsiz insonlar, xazinalari bo'lsa ham, hech kimga foyda keltirmaydi.

Olijanoblik (yaxshilik ko'rsatish) bilgan va bilmagan, tanigan va tanimagan odamiga nisbatan ma'naviy va moddiy yordam berishni ifodalovchi insoniy fazilatdir. Bu fazilat ko'pincha tarbiya orqali shakillanadi. Olijanob insonlar qo'llaridan kelgancha samimiylik, beg'arazlilik bilan boshqalarning og'irini yengil qilishga, atrofdagilarga yordam berishga intiladilar.

Karam –kechirimli bo’lish, yomonlik qilgan odamga nisbatan ham yaxshilik qilish va uni minnat qilmaslik fazilatidir. Navoiy ta’biri bilan aytganda: “Karam bir jafokashning og’ir yukini ko’tarmoq va usha yukning mashaqqatidan uni qutqarmoqdir. Karam-birovning tikanli mashaqqat yukini ko’tarmoq va tikan sanchilishidan guldek ochilmoq va qilgan ishi haqida qayta og’iz ochmaslik, hech minnat qilmaslik, aslo yuziga solmaslikdir”. Karam oliyjanoblilik himmatlilik, sahovatlilik, muruvvat kabi fazilatlarga ega bo’lgan insonlardagina bo’ladi. Mehrli insongina karamli bo’ladi. Yuqorida aytib o’tilgan xislatlar turli odamlarda turli xil darajada namoyon bo’ladi. Inson mehrli bo’lishi, lekin sahiy bo’lmasligi, yoki faqat tanigan bilgan odamigagina yordam berishi, ya’ni oliyjanob bo’lmasligi mumkin. Bu tuyg’uning turlicha namoyon bo’lishiga sabab, “manfaat”larning mavjuligidir. Har bir inson muayyan manfaatlarning egasidir. Manfaat inson tuyg’ularining samimiy, beg’araz bo’lish yo’lidagi to’siqdir. Navoiy asarlarida manfaat tushunchasi qo’llanilmagan, chunki bu tushuncha keyingi davrlarda falsafiy atama sifatida fanga kiritilgan. Lekin Navoiy ezgu fazilatlarning kushandasi sifatida xudbinlikni ko’rsatadi. Xudbinlik manfaatparastlik bo’lib, xudbin inson o’z manfaatini o’zgalar manfaatidan ustun qo’yadi, o’z manfaatiga boshqalarni bo’ysundirishga harakat qiladi. Xudbinlik takabburlik va manmanlikka olib keladi, xudbin odam nafs quliga aylanadi.

“Mahbub ul-qulub”ning uchunchi qismida shoir hayotiy tajribasini, yuksak e’tiqodini aks ettirgan 118 tanbeh jamlangan bo’lib, ular Navoiyning boshqa asarlari kabi insoniylik sirlarining kalitidir. Navoiy inson qaysi davrda, qanday zamon ahli orasida yashamasin, doimo ezgulik, yaxshilikni diliga jo qilib, yashashi kerak degan xulosaga keladi.

ADABIYOTLAR

1. Rahmatov O’ Abadiyat gulshani. T.: “Sharq” , 2013 y. 16-b.
2. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989. 139-b.
3. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989. 217-b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G’afur. G’ulom., 1983. 60-b.

- 5.Arba'in. (Alisher Navoiy nazm ila bayon etgan xadislar) T.: Mehnat, 1991. –b.58
- 6.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G'afur.G'ulom., 1983. 62-b.
- 7.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G'afur.G'ulom., 1983. 61-b.